QASHQADARYO VILOYATI
SHAHRISABZ TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

181302, Shahrisabz shahri, Fusunkor ko‘chasi 86-uy, tel/faks: 75-522-02-25

2022 - yil 29 - sentabr 232-4-67-Q/22 Shahrisabz tuman hokimligi

Shahrisabz tumanining ayrim avtomobil yo‘llarida avtomobillar qatnovini tartibga keltirish, texnika xavfsizligini saqlash, tirbandlikni oldini olish maqsadida tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash va Shahrisabz tuman avtomobil yo‘llarida avtomobillar qatnovini tartibga keltirish, texnika xavfsizligini saqlash, tirbandlikni oldini olish, aholi hamda tadbirkorlarga qulayliklar yaratilishni ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori qarori hamda Shahrisabz tuman IIBning taqdimnomasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shahrisabz tumanining ayrim avtomobil yo‘llarida avtomobillar qatnovini tartibga keltirish, texnika xavfsizligini saqlash, tirbandlikni oldini olish maqsadida:

- 4k307 “Shahrisabz-Miraki” avtomobil yo‘lining 7-8 km oralig‘ida 3.20 “Quvib o‘tish taqiqlanadi”, 3.21 “Quvib o‘tish taqiqlanadi hududning oxiri” va 3.22 “Yuk avtomobillarini quvib o‘tish taqiqlanadi” yo‘l belgisi;

- 4k307 “Shaxrisabz-Miraki” avtomobil yo‘lining 12 kmda 3.20 “Quvib o‘tish taqiqlanadi” yo‘l belgisi;

- 4k307 “Shaxrisabz-Miraki” avtomobil yo‘lining 12-13 kmlar oralig‘i 3.20 “Quvib o‘tish taqiqlanadi”, 3.21 “Quvib o‘tish taqiqlanadi hududning oxiri” va 3.22 “Yuk avtomobillarini quvib o‘tish taqiqlanadi” yo‘l belgisi;

- 4k280 “Shaxrisabz-Shamaton-Tanxoz” avtomobil yo‘lining 3 kmda 3.20 “Quvib o‘tish taqiqlanadi”, 3.21 “Quvib o‘tish taqiqlanadi hududning oxiri” va 3.22 “Yuk avtomobillarini quvib o‘tish taqiqlanadi” yo‘l belgisi;

- 4k279 “Shaxrisabz-Sinabog-Chorshanbe-Tezguzar” avtomobil yo‘lining 12-13 kmlar oraligida 5.16.1, 5.16.2 “Piyodalar o‘tish joyi” va 3.20 “Quvib o‘tish taqiqlanadi” yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

3. Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (U.Azizov) mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman IIB YXXG (SH.Otoqulov)ga:

- mazkur avtomobil yo‘llarida tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatilishi munosobati bilan avtomobillar qatnovini tartibga keltirish;

- tirbandlikni oldini olish;

- aholi havfsizligini ta’minlash;

- texnika xavfsizligini saqlash;

- transport vositalarini o‘rnatilgan yo‘l belgilari asosida harakatlanishini qat’iy nazratga olsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Qurbonov zimmasiga yuklatilsin.

Shahrisabz tuman hokimi **S.A.Xasanov**